

## XARAKTER YARATISH MAHORATI VA YOZUVCHI INDIVIDUALLIGI

**Ro‘ziboyev Bobur Mirzaqulovich**

*GulDU tadqiqotchisi*

*Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani 69-maktab ona tili va adabiyot fani*

*o‘qituvchisi*

*[bobirruziboyev4@gmail.com](mailto:bobirruziboyev4@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada istiqlol davri hikoyalari misolida turli toifa kishilarining shaxs sifatidagi individual belgilari aks ettirilgan. Shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos mahorati ham tadqiq etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *individual belgilari, postmodernistik asar, polifonik shakl, inson ma’anaviyati.*


“Ijod jarayonida san’atkorning diqqat markazida turadigan predmetlardan biri – insonning shaxs sifatidagi konkret xususiyatlarini, individual belgilarini ko‘rsatishdir. Tomchida quyosh aks etganidek, badiiy asarda inson hayotining konkret manzaralari, individual belgilari orqali hayotdan olingan umumlashmalar ifodalanadi”. Shu ma’noda istiqlol davri hikoyachiligida turli toifa kishilarning shaxs sifatidagi individual belgilari yorqin ko‘zga tashlanadi. Adiblar asarlarida alohida obrazlarining turfa xil tabiati aks ettirilgan. Bunday aks ettirish maxsus badiiy tasvir vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Yozuvchi Isajon Sultonning “Yoqimtoy pushtirang maxluqcha” hikoyasida g‘aroyib maxluqcha – katoblepas haqidagi g‘aroyib hikoya bo‘lib, unda hayvonot bog‘laridan birida yashaydigan ushbu maxluqning iztiroblarini tomosha qilish uchun tomoshatalablar olmoni yig‘ilishi va uning g‘ayritabiiy xatti-harakatlari, kuylashi yoki o‘zini yeb qo‘yishi kabilar ularni jalb qilayotganligi haqida so‘z boradi.

Katoblepas yotgan qafasga chilvirda bog‘langan quyonni tashlab, uni bo‘g‘ma ilonga o‘lja qilib tashlab berishadi. Bo‘g‘ma ilon bog‘langan quyonga yaqinlashgan sari pushtirang maxluqcha iztirobi oshib, o‘zini-o‘zi yeb qo‘ya boshlaydi. Lekin qiziqarlisi hech qayeridan qon chiqmasligi va yeb qo‘ygan joylari yana qaytadan o‘sib chiqishi bo‘ladi.

“Yoqimtoy pushtirang maxluqcha” – o‘ziga xos postmodernistik asar. ... Qayta-qayta takrorlanaveradigan holatni tiniq aks ettirgan bu hikoya – tom ma’nodagi postmodernistik asar. Noreal voqelik orqali muhim insoniy holatni tasvirlab bergan”. Ko‘rinadiki, bunday maxluqcha tabiatda yo‘q va u bilan bog‘liq jarayon ham yozuvchi tomonidan o‘ylab topilgan. Muallifning mahorati shundaki, u noreal





voqelikda yuz berayotgan bu hodisaga kitobxonni ishontira oladi. Bunda ilon, quyoncha kabi detallardan unumli foydalanadi. Asardagi tomoshatalab olomonning iztirob chekayotgan katoblepasni zavqlanib tomosha qilishi atrofdagi ayrim kishilarning dard yoki iztirob chekayotgan insonga tomoshabin bo'lib qarab turishlarini eslatsa, pushtirang maxluqchani o'zini o'zi yeb qo'yishi insonlarning iztirob chekayotganlarida ich-ichidan siqilishi va ich-etini yeb bo'lishiga o'xshatma tarzda shakllantirilgan. Mazkur hikoyadagi pushtirang maxluqcha garchi o'ylab topilgan noreal mavjudot bo'lsa ham asardagi tomoshabin bo'lib turgan insonlardan ko'ra ta'sirchanroq va mehribonroq qilib tasvirlangan. Maxluqchani portreti asarda quyidagicha tavsiflangan: "Terisi yumshoq, mayin, oqish parlari ham bor ekan. Nozik qizg'img'ir-sarg'ish naqshlari ko'rinib turibdi. Boshi gavdasiga qaraganda ancha katta, ingichka bo'yni bu boshni tutib turganining o'zi mo'jiza. ... Katoblepas o'simlik yemaydi. Uning rizqi ertalabki shudring va o'rmonda o'sadigan g'alati bir g'iyoh. Yemishini opkelishganmi desam, unaqa narsa ko'rinmasdi..."

Pushtirang maxluqcha yomg'ir tomchilaridan zavqlanib kuylayotgan holati muallif tomonidan quyidagicha tavsiflangan:

"... Hayot sururi, farog'atlari, yomg'irning yog'ishiga madhiya kabi, past ovozda, berilib-berilib kuylardi u. Yomg'irlar yog'moqda, bepoyon o'rmonlar, nihoyasiz yashil-sarg'ish dalalar birday chayqalmoqda. O'tlarning poyalari egilib-egilib qolmoqda. ...Kuy odam ongida xayol uyg'otadi. Lekin bunaqa tiniq go'zal xayol uyg'otadigan kuyni endi-endi eshitmoqdaman. Bu kuyda tevarakka, yomg'ir tomchilariga, shu tomchilarda titrayotgan yaproqlarga, ho'l tuproqlarga muhabbat va shukrona to'la edi. Balki u o'zi chiqarayotgan ovozning shunaqa ma'no uyg'otayotganidan bexabardir?" Ko'rinadiki, pushtirang maxluqchani aytayotgan kuyi insonni ham bo'layotgan hodisalar, xususan, tabiat jilolari, ranglar va hodisotlar xususida mushohada yuritishga chaqiradi, ular xususida chuqurroq o'ylashga chorlaydi. Ya'ni maxluqcha insondan yaxshiroq his etadi. Shuning uchun ham u ulkan ilonning quyonni paqqos tushirishi hodisasiga odamlarga o'xshab tashqaridan indamay tomosha qilib tura olmaydi. O'zi juda ojiz va jajji bo'lganligi tufayli alomini, iztirobini ko'zyoshlaridan va o'z tanasini parchalashdan oladi. Shunda ham boshqalarga zarari tegmaydi. Insonlar esa bu hodisani pul to'lab tomosha qilishadi va maxluqchani shunchalar iztirob chekishini kutishni xohlamay betoqatlanishadi.

Hikoyachi qahramon bo'g'ma ilonning quyonni yutish uchun yaqinlashayotgan chog'ida va maxluqchani bu holatga chiday olmasdan o'zini tishlab, etini uzib olayotgan chog'ida bunday tomoshaga yuragi dosh bera olmasligini sezib otilib chiqib ketadi. Asar muallifi bu hikoya orqali insonlarning bunday jaholatni indamay



tomosha qilishlari chin insoniylikning yo'qolib borayotganligini dalolatlashini aytmoqchi bo'ladi.

Yozuvchining navbatdagi hikoyasi "Qismat" deb nomlangan bo'lib, ushbu hikoyada yozuvchi otalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar xususida fikr yuritadi. O'zbek millatining qadriyatlaridan bo'lgan otaga qo'l ko'tarmaslik xususidagi qarashlar asar mazmuniga singdirilgan. Hikoya polifonik shaklda yaratilgan, ya'ni unda hikoyachi qahramonlar aynan shu hikoyadagi obrazlar bo'lib, ular ota, kichkina, o'rta va katta o'g'il va enadan iborat. Bir voqelik aynan mana shu qahramonlarning turfa rakurslari orqali aks ettirilgan.

Bu hikoyadagi syujet ham yozuvchining o'ziga xos uslubiga ko'ra noreal voqelikka asoslangan. Voqealar rivojiga ko'ra barcha rakurslardan ham qaralganda, ota vafot etganidan so'ng tilla baliqqa aylanib qolgan. Uni olib kelib pishirib berilsa, onaning ko'zlari ravshanlashadi. Lekin kichik o'g'il uchun bu tilla baliq uning tilaklarini bajo keltiruvchi mo'jizakor kuch egasi, o'rtancha o'g'il uchun o'zining otasi, katta o'g'il uchun ham ota, lekin bu o'g'il otadan alamzada. Chunki undan ko'p jabr ko'rgan, ko'z oldida onasi kaltaklangan, ukasi otib yuborilgan, o'zi kaltak yegan. Shuning uchun baliqni qo'shtig' bilan otib, olib kelib, alambosti uchun jizg'anak qilib yog'da qovurib, onasiga pishirib beradi.

Baliqqa kichik o'g'il tomonidan: "Ammo mening balig'im suv betiga chiqqanida hamma jonzotlarning ovozi o'chib ketadi. Hatto kapalaklar ham jim qoladilar. Bilganim – tevarakda bunaqa rang-u tUSDagi baliq yo'q. Birovning ko'rgani-yu aytganlariniyam eslolmayman", deya ta'rif beriladi.

O'rtancha o'g'il: "Otamday vazmin, og'ir... otamday kamgap... yurganida yer zirillardi, hovliga kirganida haybatidan hamma jimib ketardi... baliq ham shunaqa edi...", deydi.

Katta o'g'il esa: "Enamni urganlaringda qo'lingga yopishganlarim esingdami? ...Ichib kelib, hammani tumtaraqay qilganlaring-chi? Menga ketmon otganingda yelkamni o'pirib yuboruvding, izi haliyam bor, haliyam qoni silqib turibdi, yelkamda emas, ichkarida, yuragimda! ... Bola bo'lib ota nimaligini bilmaganim yetmadi. Katta bo'lib tomorqadan beri kelmadim. Esimni tanibmanki mehnat qildim, haybatingdan qo'rqib uydan ko'chaga chiqolmadim.

Mana, haliyam tuproqqa o'ralashib yuripman.

Jizilla, jizilla!.."

Har uchala ta'rifda ham bir umumiy jihat ko'zga tashlanadi, u ham bo'lsa u ko'ringanda hamma jim bo'lib qolishi holati. Kichik o'g'il baliq suv yuzasiga chiqqanda shunday bo'lishini ta'kidlasa, o'rtancha o'g'il otasining haybati sabab shunday bo'lgan deb hisoblagan. Katta o'g'il esa uning johilligi bunga sabab deb



hisoblaydi. Asar muallifi bu holatga hikoya davomida alohida urg'u berib boradi va buning asl sababini ona monologi orqali oshkor qiladi: "Sababi, otasiga qo'l ko'targan edi-da. Endi bir paytlar... Kattalarning otalari namoz o'qimasin degan buyruq bo'lganida, ota undan bekitiqcha machitga chiqqan ekan. Aksiga olib, o'sha kuni qanaqadir bayram edi, kelib otasiga "men qamalib ketaymi" deb o'shqirgan, siltab-siltab tashlagan, ota yiqilganida qamish bo'yraning cho'pi ko'ziga kirib ketgan, shunda "qamishday qurigin iloyo" deb qarg'agan edi". Ya'ni otaning qarg'ishini olgani uchun uning hayoti barbod bo'lgan va shu sababli ishlari yurishmay, alamini bola-chaqasidan olgan. U borligini hammaning sukut saqlashi esa noreal voqelikda unga ota tomonidan aytilgan qarg'ish hukmining ijrosini kutishday holatni yuzaga keltirgan. Hayotligida biri ikki bo'lmagan bu odam o'lganidan so'ng onaning ko'zlariga davo bo'lishga yaraydi.

Mazkur hikoyada sho'rolar davri siyosatidagi norasolliklar bilan bir qatorda inson ma'naviyati masalasi ham ilgari surilgan. Ya'ni dinga va dindorlarga qarshi kurash sho'rolar ishi bo'lsa-da, ularga manqurtlarcha xayrixoh bo'lgan, o'z mansabidan ayrilishni istamagan shaxslar ham ko'p ekanligi mana shu asardagi ota obrazi orqali aks ettirib berilgan.

Hikoya haqida adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov quyidagi fikrlarini bildirib o'tganlar: "Hikoyadagi arxitektonika obrazlarni yoritish yo'sini betakror. Yangi, yozuvchining "Qismat" hikoyasi 2011-yilda jahonning o'nta yetuk hikoyasi qatoridan o'rin oldi, postmodernistik metodning a'lo asarlaridan deb topildi".

Haqiqatdan ham, ushbu hikoya inson ma'naviyatini belgilaydigan otalik va farzandlik burchi, oila mas'uliyati, mehr-shafqat, odamiylik kabi jihatlarining insonda mavjud bo'lishi naqadar muhim ekanligi haqida o'z fikrni beradi. Yozuvchining mahorati polifonik tasvir va obrazlar monologi orqali ma'nau tubanlashgan kimsa xarakterini va uning bunday bo'lish sababi va undan kelib chiqqan oqibatlarining insonning o'z tiynati va ma'naviyatiga bog'liq ekanligi haqidagi xulosasini havola etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Қ.Йўлдош. Ўзбек насри уфқлари. («Ёниқ сўз» китоби). – Т.: Янги асп авлоди, 2006. – Б.35.

[www.e-adabiyot.uz.pg.1](http://www.e-adabiyot.uz.pg.1).

2.Собир Ўнар. Баъзан маънавиятни, адабиётни бутунлай бегона соҳа деб яшаётган раҳбарлар.





Муаллифлар жамоаси. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.153.

3.Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Т.: ЎАЖБНТ. 2008 – Б.332.

4.Маъсума Аҳмедова. Ҳикоялар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа уйи. 2012. – Б. 46.

Аббос Саид. Қария. – Т.: Шарқ, 2006. – Б.350.

5.Биби Робия Саидова. Парвоз. – Т.: Адиб. 2014. – Б.21.

Исажон Султон. Ҳикоялар. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 148.

6.Latif Mahmudov. Sevgi desam. – Т.: O'qituvchi, 2005. – В.17.

Исажон Султон. Озод. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 230

7.Абдуғафур Расулов. Акслар фалсафаси. (сўнгсўз)/ Исажон Султон.Озод. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 425.

